

“Toshkent shahar mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” DUK (keyingi o'rinlarda Buyurtmachi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor O.Abdunazarov bir tomondan va **"RAVON LOYIHA LUX" MCHJ** (keyingi o'rinlarda Bajaruvchi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor X.Abdullayev ikkinchi tomondan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi 2022-2026-yillarda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi №PQ-172 sonli qarori bo'yicha budjet mablag'lari xisobidan joriy ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va ijobiy ekspertiza xulosasini olish ishlarini bajarishga doir amaldagi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi “Davlat xaridlari to'g'risida”gi 684-sonli qonuniga asosan xarid.uzex.uz maxsus axborot portal orqali (Lot raqami 73755) e'lon qilingan va “Toshkent mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” DUK xarid komissiyasining 2022 yil 05 05 dagi bayonnomasiga asosan quyidagi shartnomani tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti va muddati.

1.1. Bajaruvchi **Yangixayot tumani Xo'jauchqun MFY Ittifoq ko'chasi joriy ta'mirlash loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish** va ijobiy ekspertiza xulosasini olish majburiyatini, Buyurtmachi esa uni qabul qilib olish majburiyatini oladi.

1.2. Bajaruvchi loyiha-smeta xujjatlari ishlarini O'zbekiston Respublikasida belgilangan huquq va qonun talablariga asosan amalga oshiriladi.

1.3. Bajaruvchi shartnoma bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqadi, shu jumladan uchinchi shaxsni yollagan xolda belgilangan tartibda loyiha-smeta xujjatlarini davlat ekspertizasidan o'tkazadi.

1.4. Bajaruvchi loyiha-smeta hujjatlarini Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan birlamchi ma'lumotlar asosida shartnoma va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xuzuridagi Respublika G'aznachiligi yoki uning xududiy boshqarmalarida ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab shartnomaning 2-ilovasi “Bajarish va moliyalashtirish jadvali”da belgilangan muddatlarda bajaradi.

1.5. Bajaruvchi loyiha-smeta xujjatlari ishlari bo'yicha davlat va zarur bo'lganda boshqa tegishli ekspertiza xulosasini olgandan so'ng, ishlarni bajarish muddati davrida 3 (uch) nusxada mazkur loyiha va qidiruv ishlari xujjatlarini Buyurtmachiga taqdim etishi kerak.

1.6. Ish jarayonida kelishilgan asosiy loyihaviy yechimlarni buyurtmachiga topshiriladi.

2. Shartnoma bahosi va to'lovlar qoidolari.

2.1. Shartnomaning bahosi shartnoma taraflarining kelishuvi (1-ilova)ga asosan QQS bilan **12 246 600 (o'n ikki million ikki yuz qirq olti ming olti yuz)** so'mni tashkil etadi va mazkur shartnomaning 2-ilovasidagi “Bajarish va moliyalashtirish jadvali”ga muvofiq bajariladi.

2.2. Buyurtmachi shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika G'aznachiligi yoki uning xududiy boshqarmalarida ro'yxatdan o'tgandan so'ng 5 kun mobaynida shartnoma bahosining 30 foiz miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

2.3. Shartnoma bo'yicha qolgan mablag', Bajaruvchi loyiha-smeta xujjatlari ishlari davlat va zarur bo'lganda boshqa tegishli ekspertizasi xulosasini olib, Buyurtmachiga taqdim etgandan so'ng, topshirish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtirilib, 15 kun mobaynida dastlab to'langan avans mablag'i (shartnoma bahosining 30 foizi miqdorida) ushlab qolinib, Buyurtmachi tomonidan qabul qilingan hisob-faktura (schiyot-fakturaga asosan) moliyalashtiriladi.

2.4. Shartnomaning bahosi uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlar qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;
- ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda.

Dastlabki hisoblangan smeta hujjatlariga ekspertiza xulosasi olingandan so'ng, loyiha-smeta hujjatlari bahosi (mahalliy byudjetdan moliyalashtirilganda Toshkent shahar moliya boshqarmasi) Toshkent shahar va tuman (shahar) xalq deputatlari qarorlariga yoki Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan manzilli ro'yxatga asosan Buyurtmachi va Bajaruvchi roziligi bilan zaruratga ko'ra ushbu shartnomaga qo'shimcha kelishuv imzolash yo'li bilan o'zgartirish kiritish mumkin.

3. Tomonlar majburiyatlari.

3.1. Buyurtmachi barcha ishlar bajarilib bo'lingandan keyin belgilangan narxning hammasini Bajaruvchiga to'lashi yoki ishlarining ayrim bosqichlari tugatilganidan keyin narxning tegishli kismini to'lashi, tayyorlangan loyiha-

smeta xujjatlarining kamchiliklari borligi munosabati bilan uchinchi shaxs tomonidan Buyurtmachiga nisbatan qo'zg'atilgan davo yuzasidan ishda qatnashishiga Bajaruvchini jalb qilishi shart.

3.2. Buyurtmachi ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan birlamchi ma'lumotlarni (nuqsonlar qaydnomasi yoki ijro hujjatlari, pudrat tashkilotining o'rtacha ish haqi, ishlatiladigan mashinalar, mexanizmlar va texnik ko'rsatkichlarga ega transport vositalari, ularning ishlash xarajatlari ko'rsatkichlari, pudratchining boshqa xarajatlarini) taqdim qiladi.

3.3. Bajaruvchi Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan birlamchi ma'lumotlarni 10 (o'n) ish kuni moboynda o'rganib chiqishi hamda berilgan ma'lumotlarda kamchiliklar aniqlansa Buyurtmachiga ma'lum qilishni o'z zimmasiga oladi.

Agar Bajaruvchi Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan birlamchi malumotlarda aniqlangan kamchiliklarni, 10 (o'n) ish kuni muddat ichida Buyurtmachiga ma'lum qilmasa, ma'lumotlar qabul qilingan deb xisoblanadi va bunday xolat Bajaruvchi ishlarini bajarish muddatini o'zgartirishga asos bo'la olmaydi.

3.4. Bajaruvchi loyiha-smeta ishlaridagi kamchiliklar uchun, shu jumladan keyinchalik qurilish jarayonida, shuningdek tayyorlangan loyiha-smeta xujjatlari va bajarilgan qidiruv ishlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan obyektni ishlatish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgar bo'ladi. Agar loyiha-smeta xujjatlari yordamchi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa kamchiliklar aniqlangan taqdirda Bajaruvchi, yordamchi tashkilot bilan birga ishlab chiqilgan loyiha-smeta xujjatlari uchun to'liq javob beradi va Buyurtmachining talabi bilan loyiha-smeta xujjatlarini bepul qayta ishlab chiqish va shunga muvofiq zarur qo'shimcha ishlarni bajarishi shart.

3.5. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov o'z vaqtida o'tkazilmagan xolda yoki dastlabki ma'lumotlarni taqdim qilish kechiktirilganda ishlarni tugallash muddati to'lov yoxud taqdim kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

3.6. Bajaruvchi loyihaning asosiy yechimlarini Buyurtmachi bilan birgalikda tegishli idoralar va tashkilotlar bilan kelishiladi.

4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi.

4.1. Loyiha-smeta xujjatlari ishlari bajarilishining alohida bosqichi va shartnoma bo'yicha belgilangan jami ishlar tugagandan so'ng Bajaruvchi Buyurtmachiga ishlarni topshirish - qabul qilish dalolatnomasi bilan loyihalash uchun topshiriqda ko'zda tutilgan hujjatlar to'plamini topshiradi.

4.2. Buyurtmachi ishlarni topshirish - qabul qilish dalolatnomasi va mazkur shartnomaning 4.1- bandida ko'rsatilgan hisobot hujjatlarini olgandan so'ng 10 (o'n) kun mobaynida ishlarni qabul qilish va Bajaruvchiga imzolangan topshirish va qabul qilish dalolatnomasini yoki ishlarni qabul qilmaslikning asoslangan rad javobini yuborishni o'z zimmasiga oladi.

Agar Buyurtmachi ishlarni qabul qilgan kundan boshlab 10 (o'n) kun muddat ichida Bajaruvchiga kamchiliklar ko'rsatilgan ishlarni qabul qilmaslik rad javobini yubormasa, ishlar qabul qilingan hisoblanadi va bunday holatda Buyurtmachi ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolab, bir nusxasini Bajaruvchiga qaytarishi shart.

4.3. Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan holda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

4.4. Agar loyiha-smeta xujjatlari ishlarini bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun mobaynida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart.

4.5. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga loyiha-smeta xujjatlari bo'yicha xulosa uchun murojat qilishi mumkin.

5. Konfidentsial ma'lumotlarni himoyalash.

5.1. Loyiha-smeta xujjatlari ishlarining bajarilishi davrida Bajaruvchi o'zi konfidentsial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni Buyurtmachidan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

6. Nizolarni xal etish.

6.1. Shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan nizolarni taraflar o'zaro muzokara yo'li bilan hal etadi. Muzokara natijasida kelishuvga kelinmagan taqdirda nizolar taraflar tomonidan Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi berish va ishni sudda ko'rib chiqilishi natijasida hal qilinadi.

7. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish.

7.1. Mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim ko'rinishidagi o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda qilingan hamda tomonlar (yoki tomonlar nomidan vakillar) imzolagan holdagina G'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin yuridik kuchga ega bo'ladi.

7.2. Shartnoma taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin. Shartnoma o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuvi yozma shaklda amalga oshiriladi. Shartnomani bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yoki shartnomaning shartlarini bir taraflama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

7.3. Bir taraf shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdan rad javobi olganidan keyingina shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

8. Fors-major.

8.1. Fors-major vaziyatlari paydo bo'lishi munosabati bilan mazkur shartnomadagi tomonlar majburiyatlari butunlay bajarilmasa yoki qisman bajarilsa, majburiyatlarni bajarish muddatlari bunday vaziyatlar ta'sir etishi vaqtiga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

9. Qo'shimcha shartlar.

9.1. Bajaruvchi Loyiha-smeta xujjatlari ishlarini muddatidan oldin bajarganida, Buyurtmachi uni Shartnomaning 4-bandiga asosan qabul qiladi va to'la to'lovni amalga oshiradi.

9.2. Bajaruvchi Shartnoma shartlarini bajarish uchun, Shartnomada belgilangan muddatlarga rioya qilinishini inobatga olgan holda hamda Buyurtmachi bilan kelishilgan xolda, yordamchi tashkilotlarni jalb qilishi mumkin.

9.3. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirilganda shartlashilgan xaqi kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 20 foizidan oshmasligi lozim.

9.4. Bajaruvchi tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash o'z vaqtida bajarilmay majburiyatlar buzilgan bo'lsa, Bajaruvchi Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 20 foizidan oshmasligi lozim.

9.5. To'langan penya taraflarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

9.6. Shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va har ikkala nusxasi ham bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi.

9.7. Shartnoma 31.12.2022 yilga qadar amal qiladi.

9.8. Shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

1-ilova - Shartnoma bahosining kelishuvi bayonnomasi;

2-ilova - Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishni bajarish va moliyalashtirish jadvali.

10. Tomonlarning manzili va hisob raqamlari

“Buyurtmachi”

“Toshkent shahar mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” DUK

100000.Toshkent shahri, M.Ulug'bek tumani

Mustaqillik shoh ko'chasi 68-uy

Tel:237-57-08

ShG'x: 304521860262697045129118101

INN: 304 893 532 OKED: 71120

O'zbekiston Respublikasi Moliya

Vazirligi G'aznachiligining

Amaliyot Boshqarmasi

xG'r: 2340 2000 3001 0000 1010

MFO 00014 INN 201129919

Direktor  O.Abdunazarov

“Bajaruvchi”

"RAVON LOYIHA LUX" mas'uliyati cheklangan jamiyati

Toshkent shahri, Sergeli tumani,

Shokirariq ko'chasi 82-uy

Tel./faks: (99897) 746-41-36,


H/r: 2020 8000 0051 6026 9001

“Ipoteka-bank” ATIB

Sergeli filiali

MFO: 00978 INN: 306 997 298

QQS kodi: 326070177845



Direktor  X. Abdullayev

2022-yil « 03 » 05 dagi
168/2022-sonli shartnomaga 1 - ilova

Shartnoma bahosini kelishuvi

BAYONNOMASI

Biz, kuyida imzo qo'yuvchilar: **Yangixayot tumani Xo'jauchqun MFY Iltifot ko'chasi joriy ta'mirlash loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqish** va ijobiy ekspertiza xulosasini olish bo'yicha 2022 yil "03" 05 dagi 168/2022-sonli shartnoma bahosi QQS bilan **12 246 600 (o'n ikki million ikki yuz qirq olti ming olti yuz)** so'mni tashkil qiladi.

Ushbu bayonnoma Buyurtmachi va Bajaruvchi o'rtasida o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos hisoblanadi.

"Buyurtmachi"

**"Toshkent shaharmintaqaviy yo'llarga
buyurtmachi xizmati" DUK**

100000.Toshkent shahri, M.Ulug'bek tumani
Mustaqillik shoh ko'chasi 68-uy
Tel:237-57-08
Sh/x: 304521860262697045129118101
INN: 304 893 532 OKED: 71120
O'zbekiston Respublikasi Moliya
Vazirligi G'aznachiligining
Amaliyot Boshqarmasi
x/r: 2340 2000 3001 0000 1010
MFO 00014 INN 201129919

Direktor  O.Abdunazarov



"Bajaruvchi"

**"RAVON LOYIHA LUX" mas'uliyati
cheklangan jamiyati**

Toshkent shahri, Sergeli tumani,
Shokirariq ko'chasi 82-uy
Tel./faks: (99897) 746-41-36,
H/r: 2020 8000 0051 6026 9001
"Ipoteka-bank" ATIB
Sergeli filiali
MFO: 00978 INN: 306 997 298
QQS kodi: 326070177845

Direktor  X. Abdullayev



2022-yil « 05 » 05 dagi
168/2022-sonli shartnomaga 2- ilova

**Yangixayot tumani Xo'jauchqun MFY Iltifot ko'chasi joriy ta'mirlash loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqish
va ijobiy ekspertiza xulosasini olish**

BAJARISH VA MOLIYALASHTIRISH JADVALI

so'm

№	Bajariladigan ishlarning nomi	Qiymati	Bajarish		Moliyalashtirish muddati
			muddati	qiymati	2022 yil
	Avans miqdori				3 673 980
1	Loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqish va ijobiy ekspertiza xulosasini olish	12 246 600	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 7 kun	12 246 600	8 572 620
	Jami:	12 246 600		12 246 600	12 246 600

Buyurtmachi



Bajaruvchi



Korrupsiyaga qarshi shart

1.1. Tomonlar:

- Tomonlar, ularning afillangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish soxasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlari talablarining buzulishiga olib kelinadigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni vada qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti xarakatlari/xarakatsizliklarini sodir etmaydilar.

- Tomonlar, ularning afillangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summolari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarini beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi tomon foydasiga qandaydir xatti xarakatlarni/xarakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan vos kechadilar deb ma'lum qiladilar.

1.2. Tomonlar ushbu ilovaning 1.1 bandidagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubxalar yuzaga kelgan holda, tegishli tomon bu haqda ikkinchi tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish soxasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa amaldagi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham habardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Buyurtmachi



Bajaruvchi



“ТАСДИКЛАЙМАН”
“Тошкент шаҳар минтақавий йўлларга
буюртмачи хизмати” ДУК директори, комиссия раиси
 **О.Абдуназаров**

“Тошкент шаҳар минтақавий йўлларга буюртмачи хизмати” ДУК жорий
таъмирлаш ишлари бўйича лойиҳа-смета хужжатларини ишлаб чиқиш ва
экспертиза хулосасини олиш бўйича хизмат кўрсатувчи ташкилотлар ўртасида
танлов ўтказиш бўйича комиссия йиғилиши

БА Ё Н Н О М А С И № 1

Тошкент ш.

2022 йил “5” 05

Иштирок эттилар:

Комиссия раиси:	“Тошкент шаҳар минтақавий йўлларга буюртмачи хизмати” ДУК директори	О.Абдуназаров
Комиссия аъзолари:	“Тошкент шаҳар минтақавий йўлларга буюртмачи хизмати” ДУК бош муҳандиси	М.Сирожиддинов
	Лойиҳа таъминоти бўлими бошлиғи	Б.Ибрагимов
	Ишлаб чиқариш техник бўлими бошлиғи	Н.Юсупов
	Техник кузатиш ва бажарилган ишларни қабул қилиш бўлими бош мутахассиси	С.Икромхўжаев
	Молия-иқтисод бўлими бошлиғи	Ж.Искандаров
	Тендерларни ташкил этиш ва шартномалар бўлими бош мутахассиси	С.Аббосов

КУН ТАРТИБИ:

“Тошкент шаҳар минтақавий йўлларга буюртмачи хизмати” ДУК жорий
таъмирлаш ишлари бўйича лойиҳа-смета хужжатларини ишлаб чиқиш ва
экспертиза хулосасини олиш бўйича

(О.Абдуназаров, М.Сирожиддинов, Ж.Искандаров, С.Икромхўжаев, Н.Юсупов,
Б.Ибрагимов, С.Аббосов)

ТШМЙБХ ДУК 2022 йил 19 апрелида Ўзбекистон Республикаси товар ва хом-ашё биржасининг электрон порталига жорий таъмирлаш ишлари бўйича лойиҳа-смета хужжатларини ишлаб чиқиш ва экспертиза хулосасини олиш бўйича 73825, 73827, 73829, 73833, 74299, 74302, 74305, 74313, 74318, 74323, 74333, 74340, 74342, 74345, 73800,

73802, 73804, 73806, 73807, 73808, 73809, 73810, 73811, 73812, 73814, 73815, 73816, 73817, 73819, 73821, 73823, 73776, 73777, 73779, 73782, 73783, 73784, 73787, 73788, 73789, 73790, 73791, 73792, 73794, 73795, 73797, 73798, 73799, 73754, 73755, 73756, 73757, 73758, 73759, 73762, 73763, 73765, 73766, 73767, 73768, 73769, 73773, 73732, 73734, 73735, 73736, 73737, 73738, 73739, 73740, 73741, 73743, 73745, 73746, 73749, 73750, 73751, 73730, 73731 – лот рақамлари билан эълонлар жойлаштирилди. Мазкур лот бўйича 2022 йил 27 апрельдаги энг яхши таклифларни танлаш савдосини ўтказиш бўйича давлат харидлари комиссиясининг электрон портали орқали шаклланган **“жорий таъмирлаш ишлари бўйича лойиҳа-смета хужжатларини ишлаб чиқиш ва экспертиза хулосасини олиш”** баённомасига асосан эълон якунига кўра Комиссия аъзолари томонидан **“Равон лойиҳа люкс” МЧЖ** ва **“Замонавий йўл лойиҳа” МЧЖ**лар тегишли лотлар бўйича ғолиб деб топилганлигини инобатга олиб;

КАРОР КИЛИНДИ:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги 684 – сонли Қонуннинг 62-моддаси 3-бандига асосан комиссия баённомаси давлат харидлари электрон тизимига муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди. Икки иш кунни давомида давлат харидлари электрон тизимига жойлаштирилган баённома ҳеч қандай эътирозлар ёки қўшимча таклифлар келиб тушмаганлиги маълумот учун қабул қилинсин.
2. ТШМЙБХ ДУК Тендерларни ташкил этиш ва шартномалар бўлими бош мутахассиси С.Аббосовга:
Юқоридагилардан келиб чиқиб ҳамда комиссия аъзоларининг 2022 йил 27 апрельдаги электрон баённомасига асосан тегишли лотлар бўйича ғолиблар **“Равон лойиҳа люкс” МЧЖ** ва **“Замонавий йўл лойиҳа” МЧЖ**лар билан қонунчиликда ўрнатилган тартибда шартнома тузилсин. Ҳамда хизмат кўрсатиш сифат даражаси нозоратга олинсин.

Комиссия аъзолари

М.Сирожидинов

Ж.Искандаров

Б.Ибрагимов

Н.Юсупов

С.Икромхўжаев

С.Аббосов